

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

PEΦEPAT

**MAVZU: «O'zbekiston» telekanalida axborot-publitsistik
janrlarning o'ziga xos xususiyatlari**

Tayyorladi:

Qabul qildi:

Toshkent – 201_

Televizion ko'rsatuvlarning barchasi xususida jamoatchilik fikri yuz foiz ijobiy, deb bo'lmaydi, albatta. Aholining teleradiokanallar haqidagi qarashlari turlicha. Televideniye orqali ko'rsatuvlarni kuzatib borish kim uchundir ehtiyojga aylangan bo'lsa, yana kimdir uni mazmunli hordiq chiqarish uchungina tomosha qiladi. Ammo televideniyeining muhim vazifasi jamiyatning axborotga bo'lgan talabini qondirish barobarida aholining dunyoqarashini yuksaltirish, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar xususidagi qarashlarini shakllantirishdan iborat. Xo'sh, televideniye ana shu mas'uliyatli vazifalarni qay darajada bajaryapti? Jamoatchilikning ularga bo'lgan munosabati qanday? Ana shu savollarga javob topish maqsadida kurs ishida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyalarning auditoriyasi kimlardan iborat ekanligia to'xtalamiz.

“O'zbekiston” teleradiokanalining auditoriyasi kimlardan iborat?

Avvalo ushbu teleradiokanal haqida gapirishdan avval uning maqsad va yo'nalishlarni belgilab olish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

“O'zbekiston” teleradiokanali quyidagilarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan:

- Davlat hokimiyati organlarning O'zbekiston respublikasi ichki va tashqi siyosati sohasidagi eng muhim qarorlari mamlakatning demokratlashtirish, yangilash va modernizastiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan, huquqiy demokratik davlatni, ochiq fuqorolik jamiyatni shakllantirishga, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga yo'naltirilgan islohatlardan mamlakat aholisi, shuningdek, chet el jamoatchiligini har tomonlama va xolis xabardor qilib borish; umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va sostial muammolar,

iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik, fermerlapr harakati, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, hamda ijtimoiy hayotning boshqa sohalarini rivojlanitirish masalalarini keng yoritish.

- Fuqarolarning ta'lim darajasini, siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy hayotining eng muhim yo'nalishlari bo'yicha o'z fikrini bayon qilishi bilan bog'liq muammolarni keng muhokama qilish, tele va radiodasturlar tayyorlash.

- Xalqimizning boy madaniy-manaviy merosini saqlab qolishga, folklor, etnografik an'analrni rivojlantirishga, milliy, hamda jahon adabiyoti, musiqasi, teatri, kinosi, tasviriy-san'atining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirishga qaratilgan muhim ijtimoiy, gumanitar, ma'rifiy teleko'rsatuv va radioeshittirishlarni tashkil qilish.

Yuqoridagi maqsadlardan ham ko'rinib turibdiki, "O'zbekiston" teleradiokanalining asosiy auditoriyasi keng jamoatchilik ekan. Unda, har turli sohaga bag'ishlangan ko'rsatuvlar berib boriladiki, bu ko'rsatuvlarning barchasi albatta o'z auditoriyasini topadi. Bu borada eng ko'p tomosha qilinadigan ko'rsatuvlar sirasiga "Axbrot" informatsion dasturini kiritish mumkin. Keling, publitsistik janr asosiga qurilgan "Kinoteatr" ko'rsatuvi va uning auditoriyasi xususida to'xtalib o'tsak.

Ma'lumki, bugungi kunda o'zbek kinosi jadal rivojlanmoqda. Deyarli har haftada qaysidir filmning premerasi bo'lib o'tishi odatiy holga aylanib bormoqda. O'zbek kinoijodkorlari tomonidan yaratilayotgan filmlar ko'plab jahon kinofestivallarida nufuzli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Tabiiyki, kino sohasidagi ana shunday voqealarni yoritadigan, yangiliklardan boxabar etadigan ko'rsatuvlar soni ham anchagina. Ammo

ular orasida "O'zbekiston" teleradiokanalidagi "Kinoteatr" ko'rsatuvining alohida o'rni bor.

Avvalo, "KinoTeatr" ko'rsatuvi kino sohasiga bag'ishlangan teleradiodasturlarning birinchisi ekanligini ta'kidlab o'tmish darkor. Ya'ni, dastur qaysidir ma'noda boshqalari uchun asos bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ko'rsatuvning tarixi haqida so'z yuritadigan bo'lsam, kino muharririyati tugatilganidan so'ng, biz Madaniy-ma'rifiy va badiiy dam olish dasturlar bosh muharririyatiga o'tdik. Shunda ham kino, ham teatr faoliyatini birdek yoritadigan teleradiodastur tayyorlashga kirishdik. O'ylab-o'ylab, "kino" va "teatr" so'zlarini qo'shib, unga "KINOTEATR" deb nom berildi.

Uning bu yo'nalishdagi boshqa dasturlardan ajralib turadigan jihati shuki, unda faqat o'zbek kinosi haqidagi ma'lumotlar bilan birga teatr san'atidagi yangiliklar ham berib boriladi. Bu esa kino ixlosmandlarni o'ziga jalb qiladi va bu ko'rsatuvning auditoriyasini kengaytiradi.

Kinoning ta'sir kuchi juda katta. Shuning uchun ham bu ko'rsatuv ko'pchilik tomoshabinlar tomonidan qiziqib tomosha qilinadi.

"KinoTeatr" ko'rsatuvi o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad – auditoriyani jalb qila olish vazifasini yaxshi uddalayapti. Bunga ko'rsatuvda olib chiqilayotgan mavzular ham information, ham publitsistik nuqtai nazardan yoritilayotgani ham sabab bo'lmoqda, albatta.

Bugungi kunda kino haqida ko'rsatuvlar juda ko'p. Lekin har birining yo'nalishi, oldiga qo'ygan maqsadi, shakli butunlay boshqacha. Ular ichida "KinoTeatr" dasturi o'zining salmog'i, mavzuga jiddiy yondashishi, analitik yo'nalishi bilan farq qiladi, deb o'ylayman. Boshqalarida ko'proq axborot va jahon yangiliklari beriladi. "KinoTeatr"da esa o'zbek kinosining

tarixi, bugungi kuni hamda kelajagi, milliy san'at durdonalariga aylangan filmlar, buyuk aktyorlarning hayoti va ijodi haqida materiallar beriladi.

Har bir ko'rsatuv qiziqarli chiqishida uning rejissurasi katta ahamiyatga ega.

Ko'rsatuvni tayyorlash jarayonida avvalo ssenariyga katta e'tibor berish zarur. Chunki aynan ssenariy jihatdan baquvvat bo'lgan ko'rsatuvlarga keng auditoriyani jalb qila oladi xolos. Yaxshi yozilgan ssenariy ijodkorni ilhomlantiradi.

Bitta ko'rsatuvni tayyorlash uchun bir hafta, ba'zida undan ham ko'proq vaqt ketadi. Teledasturni tayyorlashda butun jamoa birdek harakat qilishi lozim. Chunki bu jarayonda rejissyordan tortib, boshlovchigacha va hattoki, chiroq ustasining ham mehnati katta ahamiyatga ega.

Auditoriya. Tok-shouning asosiy bo'g'ini – auditoriya. Ko'rsatuv yo televideniyeining boshqa janrlarida auditoriya bo'lmasligi mumkin, lekin tok-shouda albatta auditoriya bo'ladi va tok-shou tok-shou qiladigan ham ma'lum ma'noda, auditoriya. Ba'zida biz odamlar uchun maxsus yuridik va medik shaxlarni ekspert sifatida taklif etamiz. Bular ko'rsatuvimizning qahramonlardan biri hisoblanadi. Biroq asosiy qahramon – odamlar, ya'ni auditoriya. Ma'lumki, auditoriya va tomoshabinning farqi bor. Tomoshabin ekran tashqarisida bo'ladi, auditoriya esa studiyada. Auditoriyaga faqat tomosha qilish bilan cheklansa, ekran qarshisidagi tomoshabindan farqi qolmaydi, u fikr bildirishi, bevosita ishtirok etishi kerak. Ho'sh, O'zbekiston tok-shoularida bu jarayon qanday? Ba'zida o'tirganlardan "Bu gapga nima deysizlar? Fikrlar bormi?" deb boshlovchi so'raydi. Ammo odamlar mavzuga mutlaqo taaluqli bo'lmagan fikrlar bildirishadi, savollar berishadi. Boshlovchi tasvirga olish jarayoni boshlangunga qadar ularga mavzu haqida tushuntirib o'tishi kerak. Kuchli tomoshabinlar ham bor.

Kutilmagan savollar bilan shoshirib qo'yishadi. Lekin ular kam. Agar tomoshabin kuchli bo'lganida, haqiqiy tok-shou bo'lardi. Auditoriyadagi yana bir muammo – andisha. Fikrlaydigan odamlar bor, ammo gapirmasdan o'tiraverishadi. Bu borada boshlovchi ham ularga shunchaki studiyani to'ldirish uchun emas, tortishish uchun kelganlarini tushuntirish kerak. Ba'zida boshlovchi savolarni oldindan berib, o'zi o'rgatib qo'ygani maqkul, deyishadi. Bu noto'g'ri. Har bir inson o'z gapini aytishi lozim. Qolaversa, oldindan yodlab olganini ko'zidan, nutqidan ham payqash mumkin. Tok-shou yaxshi chiqishi uchun boshlovchi auditoriya fikrini ham tinglay bilishi kerak. Masalan, "50x50" tok-shousida boshlovchi mehmon va auditoriya fikrini oxirigacha eshitmasdan, gapni boshqa mavzuga olib ketadi. Balki, tok-shou shunisi bilan tok-shoudir, ammo xalq mentaliteti – tashrif buyurgan insonga hurmat tushunchalarini ham nazardan qochirmaslik kerak. Shunday xollar ham bo'ladiki, studiyaga kelayotganlarning ko'pchiligi mavzuga oid fikr bildirgani emas, balki ichidagini to'kib sochgani keladi. Boshlovchi esa mehmon to bir yo'nalishga kelib olguncha chidashga majbur. Bu haqida Gulmira Musajonova shunday deydi: "Ba'zida hatto ko'rsatuvning xulosasi qo'limda tayyor bo'ladi. Ammo kimningdir ajoyib xulosasi meni uning fikriga qo'shilishga majbur qiladi. Aslida ko'rsatuvning mohiyati ham shunda. Oddiy haqiqatni topa bilishda. Ko'rsatuv davomida xohlagan ishtirokchi tomoniga o'tishim mumkin, garchi unga qo'shilmasamda". Tok-shouda ma'lum ma'noda auditoriya hisoblanadigan yana bir qatlam bor. Bu – telefon orqali studiyaga bog'lanadigan tomoshabindir. Mazkur holat ko'pincha interaktiv tarzda o'tkazilayotgan, jonli efirda uzatilayotgan tok-shoularda qo'llaniladi. Farbda interaktivlikka sharoit bo'lgani bois, bu ko'p tok-shoularida yo'lga qo'yilgan. (Bu "call-in show" deb yuritiladi).

O'zbekistonda tele tok-shoulardan ko'proq uchratamiz. Ammo, saylov jarayonlari oldidan o'tkazilgan maxsus tok-shou – “Saylov-demokratiya ko'zgusi”da tomoshabinlarning telefon qo'ng'iroqlaridan foydalanilar edi.

Mamlakatning badiiy madaniyatiga katta hissa qo'shgan yirik ijodiy shaxs o'zida hozirgi avlod uchun professional va axloqiy namunani ifodalaydi. Mustaqil davlat qurishning o'tish davrida, maf-kuraviy va estetik yo'nalishlar almashayotgan davrda, san'atning ti-joratlashuvida bunday siymolarga bo'lgan qiziqish kuchayadi — san'atning o'zi va jamiyat yuksak badiiy mezonlar va axloq norma-larini o'zida mujassam etgan siymolarga ehtiyoj sezadi. Bunga ijodiy portretlar yoshlar uchun bilim olish bilan bog'liq alohida ahamiyat-ga ega ekanligini qo'shimcha qilamiz. Yosh avlod uchun televideniye ko'pincha o'tgan asrdagi Vatan san'ati to'g'risidagi bilimlarning asosiy manbai hisoblanadi. Qolaversa, unda turfa xil muammolar ko'tarib chiqiladi. Bu jihatdan san'at to'g'risidagi ko'rsatuvlarga ko'proq qaysidir ma'noda axborot berish, ko'ngil ochish roli ajratiladi.

Siyosiy, iqtisodiy va zamonaviy hayotning ijtimoiy jihatlariga bag'ishlangan boshqa dasturlardan farq qilgan holda san'at to'g'risidagi ko'rsatuvlarda ko'ngilocharlik to'liqroq ifodalanishi talab qilinadi. Biroq bu ularda san'at muammolariga teran kirib borish lozim emasligini anglatmaydi.

Ehtimolki, tonggi «Assalom, O'zbekiston» axborot-dam olish dasturiga va san'at kishisiga — rejissor, rassom, aktyorga bag'ishlangan maxsus ko'rsatuvda ijodkor shaxs to'g'risidagi syujet o'rtasida sezilarli farq bo'lishi kerakdir, chunki crta tongdan san'at to'g'risidagi jiddiy suhbatga

chog'langaftfar kam topiladi. Praym-taymda efirga uzatiladigan maxsus ko'rsatuv esa boshqa gap.

Biz televideniye haqida ma'naviyaj. shakllanishining qudratli omili silatida gapirishga o'rganib qolganmiz. Biroq ushbu formula teleiomoshabinlarning san'atdagi voqealar, ijodkor shaxslar bilan tanishislinigina nazarda tutmaydi. U san'atdagi murakkab hodisalarni tushunib olishga intiladigan teletomoshabinlar 0111-masining ehtiyoj va qiziqishlarini o'z ichiga oladi. Tomoshabinlar ko'isatuvlarning qahramonlarida go'/allikni xunuklikdan, h.iqiqatni soxtalikJan farqlashga yordam' beradigan samimiy insoularni ko'iadihr. Televideniyeining tomoshabin takliflariga o'z munosabatini bildirishga urinishi ko'rsatuvlar mualliflari va boshlovchilardan puxta tayyorgarlik ko'rish va o'z ishini yaxshi bilishni talab qiladi.

Teleko'rsatuvlar boshlovchisining ideal portretini tuzish uncha qiyin emas. U kelishgan, nazokatli, o'zini erkin tutadigan, tinglay biladigan va zarur savollarni beradigan, ya'ni suhbat qura oladigan bo'lishi kerak. U ushbu suhbatni yuz minglab tomoshabinlar ko'rib turganini yoddan chiqarmasligi, biroq ayni vaqtda ana shu ulkan au-ditoriya va odamlarning kichik guruhiga murojaat qilish uquviga ega bo'lishi lozim. Ular bilan aloqa ishonchning yuqori darajasida yuz berishi kerak. Mavzuni va ko'rsatuv muammolarini yetarlicha bilishi, biroq o'ziga diqqat-e'tiborni jalb etmasligi, lo'nda va aniq gapira olishi shart.

San'at to'g'risidagi ko'rsatuvlar boshlovchisining ideal yig'ma portretini tuzish osonroq bo'lsa kerak. Amaliyotda barcha ideal xususiyatlarni jamlash murakkab. Bir necha talabgorlardan bittasini tanlay olish yanada qiyin — bunda fazilatlardan biri ko'plab boshqa fazilatlaidan ustunlik qilishi mumkin. Ba'zan buning aksi ham bo'ladi - ayon ko'rinib

turgandek bo'lgan fazilatlar tekshirilgan paytda unchalik yorqin bo'lib chiqmaydi.

Ba'zan teleboshlovchining go'zal fazilatlari bo'lgan erkinlik va o'zini bemalol tutish ehtiyotsizlik va tartibsizlikka aylanishi mumkin. Ba'zida teleekranda jozibali bo'lib tuyulgan yosh boshlovchilarning nafosati to'satdan ularga ishonchsizlik keltirib chiqaradi — bu yosh yigit va qizlar nima deyayotganini o'zlari ham tushunmay qoladi. Ko'rinadiki, hatto san'at to'g'risidagi ko'rsatuv boshlovchisining yoshi ham muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Biz yosh bilan hayotiy tajribani va professional bilimlarni, odamlarni bilishni va shaxsiy obro'-e'tiborni bog'laymiz. Ushbu fazilatlar teletomoshabin-larning ishonchini tug'diradi va ko'rsatuvga shaxsiy ma'no baxsh etadi.

Shukur Burhonov haqidagi ko'rsatuv «KinoTeatr» va «Kinotaqdim» dasturlarining yosh boshlovchilari tomonidan olib borilishi mumkin edimi degan savolga aniq-tiniq qilib yo'q deyish mumkin. Buning ustiga, ushbu dasturlarning o'zi professional san'atshunos boshlovchi bo'lgan taqdirda boshqacha, teranroq tahliliy sifatlar kasb etishi mumkin edi. Buni yosh boshlovchilarga ta'na deb tushunmaslik kerak. Shunchaki teatr san'ati va kinematografiya to'g'risida boshqa mualliflar va boshlovchilar olib boradigan o'zga muntazam beriladi-gan ko'rsatuvlar turkumi paydo bo'lishi zarur. Bunday ko'rsatuvlarning misollari hozirning o'zidayoq mavjud. Eng avvalo ijodiy tandem - muallif va boshlovchi Sh.Raufboyeva va rejissor D.Mirxodiyev tomonidan tayyorlangan ko'rsatuvni ajratib ko'rsatish zarur. Ularning hamkorligi «KinoTeatr» ko'rsatuvidayoq samarali bo'lib chiqdi. Teatr aktyorlari to'g'risidagi ko'rsatuv - televideniyeining sevimli mavzusi. Badiiy madaniyatning barcha arboblari bilan tomoshabin-larning ko'pchiligi aynan teatr va kino

aktyorlarini teatr va tele-spektallar, badiiy filmlar, televideniyeining boshqa ko'rsatuvlari, ni-hoyat har kuni efirga chiqadigan reklama roliklari bo'yicha tanish. U yoki bu mashhur aktyor haqidagi ko'rsatuv ayrim darajada ularning ommaviyligi tufayli tomoshabinlar o'rtasida muvaffaqiyat qozonishi muqarrar. Shu sababli aktyorlar to'g'risidagi ijodiy portretlar mualliflarining vazifalari unchalik qiyin emasdek tuyuladi, buning ustiga bunga o'xshash ko'rsatuvlar uchun shablonlar va andozalar mavjud. «Qiyofa» turkumi mualliflarining xizmati nostandart yondashuvga intilishdan, mashhur aktyorning shaxsi va ijodiga tomoshabin uchun kutilmagan, notanish qirralarni izlab nazar tashlashdan iborat.